

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10412795>

Nasrullayeva Asolat Abdumalikovna

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,

Annotatsiya: *Maqolada yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash asoslari yoritilgan. Psixolog olimlarining bag'rikenglik borasidagi fikr va g'oyalari keltirilgan, Bag'rikenglik tushunchasini shakillantirishda nimalarga e'tibor berish zarurligi keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, bag'rikenglik, tolerantlik, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, psixolog olimlarning fikrlari.*

Yoshlarni vatanparvarlik, tolerantlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash dastlab oila o'chog'ida shakillanadi, so'ng maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi bosqichlarida davom ettiriladi. 1995 yil YUNESKO tashabbusi bilan Xalqaro bag'rikenglik yili deb e'lon qilindi. O'sha paytdan boshlab "bag'rikenglik" so'zi bizning kundalik hayotimizga mustahkam kirdi. 185 dan ortiq davlat vakillari ushbu atama aniq belgilab berilgan bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasini imzoladilar. U quyidagicha ifodalangan: “Tolerantlik (lotincha tolerantia – sabr; bironing turmush tarzi, xulq-atvori, urf-odatlar, his tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, e'tiqodlariga nisbatan bag'rikenglik) bizning dunyomiz, o'zimizni ifodalash shakllarimiz va inson individualligining namoyon bo'lish usullari, bu xalqlarning boy madaniyati xilma-xilligini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishdir.

Tolerantlik - o'zgacha fikrlarga, boshqa odamlarning qarashlariga, e'tiqodlariga, xatti-harakatlariga, boshqalarning g'oyalari, pozitsiyalari va xatti-harakatlari va hokazolarga nisbatan bag'rikenglik.

O'zbekistonda ayni paytda 130 dan ortiq turli millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Polietnik davlat uchun millatlararo totuvlikni ta'minlash har doim muhim masala hisoblanadi va bu yo'lda ta'lim orqali bu maqsadga erishish eng to'g'ri yo'llardan biri sanaladi. Bag'rikenglik ko'p millatli jamiyatda ijtimoiy tenglikka yetishish hamda jamiyatda tinch-totuvlikni saqlashning asosi bo'lib, diniy, madaniy, hayot tarziga ko'ra farqlarining borligini tan olish, o'z madaniyatini ikkinchi bir madaniyatdan ustun qo'yishdan voz kechish hisoblanadi. Bag'rikenglikni tarbiyalashning psixologiyasini chuqurroq anglash uchun inson psixologiyasining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib beruvchi nazariyalarga to'xtalib o'tish lozim. Psixologlar orasida birinchi bo'lib J.Kelli 1955 yilda “har bir odamning dunyoni o'zicha, o'zi xohlaganday tushunishga xaqiligi, har bir odam o'z hayotida bo'layotgan voqealar oqimini o'zining tushunchasi orqali qarashi va baholashi” g'oyasini ilgari surgan. Inson har bir voqeaning mazmunini o'zi aniqlaydi. Voqea inson tomonidan idrok qilingandan keyingina odamga ta'sir eta boshlaydi. Odam o'zi duch kelgan turmush qiyinchiliklarini o'zining ana shu

qiyinchiliklar to'g'risidagi tushunchasini o'zgartirish orqali yengib o'tadi. Psixologiya faniga J.Kelli kognitiv murakkablik tushunchasini kiritgan. Kognitiv murakkablik insonning atrofdagi odamlarni va o'zini idrok qilishiga katta ta'sir etadi. Insonda bag'rikeng ongni va xulq-atvorni shakllantirish uchun uning kognitiv murakkabligiga ta'sir etish va uni oshirish zarur. Bag'rikenglik - bu boshqa odamning nuqtai nazarini tushunishga va u odam bilan faoliyat olib borish uchun intilishga asoslangan xulq-atvordir, turli bahs-munozara, tortishuv va nizolarni hal etishda bag'rikenglik talab etiladi. Bag'rikenglik to'rt tuzilmadan iborat bo'lib, ularni shakllantirish bag'rikenglikni tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi.

Bag'rikeng insonni shakllantirish uchun bag'rikeng yo'nalishdagi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, o'zini boshqa odamlar bilan tinch totuv yashashga o'rgatish lozim. Bag'rikenglik yo'nalishdagi ijtimoiy ko'nikmalar - bu odamlar bilan to'g'ri muomalada bo'lish, urush-janjalli vaziyatlardan chiqa olish, odamlar bilan til topisha olish, ijtimoiy-psixologik vazminlik, ijtimoiy sezgirlik, empatiyaga moyillik, bag'rikenglik, boshqa odamlarning yaxshi tomonlarini baholay olishdir. G.V.Soldatova amaliy psixologiyaning kontekstida bag'rikenglikka psixologik vazminlikni shakllantirish sifatida qarab, «bag'rikenglikni tarbiyalashni psixologik vazminlikning har qanday shakllarini rivojlantirish, o'zini boshqara olish psixologik vazminlikka erishish qobiliyatlarini rivojlantirish sifatida tavsiflangan. Yosh avlodda bag'rikenglikni tarbiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Dunyodagi barcha insonlar turlicha ekanligini va bu tabiiy normal holat ekanligini tushuntirish.
- 2) Millatlarni irqi, dini, hayot-tarzi har xil ekanligini tushuntirish.
- 3) Millatlar bir-biridan farq qilishini tushuntirish.
- 4) Kishilardagi o'zgachalikka bag'rikenglik va sabr bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish.
- 5) Fuqarolarni o'zaro tinch-totuvlikda yashashga o'rgatish.
- 6) Yoshlarga ma'suliyatni sezgan holda, javobgarlikni yuqorilatish yo'nalishida tarbiya berish.
- 7) Yosh avlodda vazminlikni kuchaytirish, bag'rikenglik, sabrlilik, chidamlilik kabi xususiyatlarni tarbiyalash.

BAG'RIKENGLIKNI TARBIYALASH UCHUN QUYIDAGI VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISH ZARUR:

1. Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga odamlar har-xil bo'lishi, ular bilan yaxshi muomala qilib yashash kerak ekanligini tushuntirish.
2. Har bir narsa o'zini takrorlanmas, qadrli xususiyatlariga ega ekanligi, shuning uchun bunga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak ekanligini tushuntirish.
3. O'zining o'z xalqining madaniyati, hayot tarzini boshqalarnikidan ustun deb hisoblamaslikka o'rgatish.

Bag'rikenglikni tarbiyalash ko'p ma'noli, murakkab tushuncha sifatida O'quvchi ko'p tomonlama ta'sir etishni, ularda odamni sevish, hurmatlash tuyg'ularini, inoqlikda yashashga intilish, sabrlilik, bag'rikenglik, chidamlilik, kechirimlilik va boshqa xususiyatlarni shakllantirishni talab qiladi. O'quvchilarga sabrlilik, bag'rikenglik, chidamlilik, kechirimlilik va boshqa xususiyatlarni singdirish, ularning mazmunini anglatish o'quvchilarning dunyoqarashi, dunyoni qabul qilishlari, anglashlarini o'zgartirib, bag'rikenglik xulq-atvoriga ega bo'lishlariga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bag'rikenglik tushunchasi avvalo oiladan va shu oilada tarbiya topyotgan farzandlarning ota onalari ularga na'muna bo'ladi. Bag'rikenglik odamlarga quyidagi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mehr-muhabbat bilan yashash, odamlarni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, uning shaxs sifatida erkinligi va huquqlarini ta'minlash kabi g'oyalar bilan sug'orilgan diniy-falsafiy, huquqiy, ahloqiy va shular kabi barcha insoniy qarashlardan iborat progressiv dunyoqarashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bag'rikenglik insoniy munosabatlarning muhim xususiyat ifodasi sifatida kishilar o'rtasidagi do'stlik, mehr-muhabbat, o'zaro yordam, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik, tinchlik, osoyishtalik kabi munosabatlarni aks ettiradi.

Shunga ko'ra fuqarolik jamiyati rivoilanishi natijasida bag'rikenglik ham iamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tobora rivojlanib. O'zining mazmunini boyitib boradi. Yosh avlodni bag'rikenglik ruhida va bag'rikenglik tamoyillari asosida tarbiyalash orqali faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, huquqiy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdek ustuvor vazifani bajarishga erishish va fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Маънавий маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари. –Тошкент: “Янги Ўзбекистон” 2021 йил 19 январь.

2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997. – 214 б.

3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: “Маънавият”, 2002. – 369-бет.

4. Трегубова Ольга Ивановна. Толерантность. Основы воспитания толерантности учащихся. <https://pedsovet.su/publ/28-1-0-1013>